

Shuningdek, voyaga yetmagan qizlar ko'pchilik jinoyatlarning sodir etilishida yo'naltiruvchi, o'g'rilik, talonchilik, ta'magirlik, firibgarlik, xatto odam o'ldirish jinoyatlarida esa ishtirokchi sifatida qatnashganlar.

Voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsiyatining navbatidagi muhim xususiyati ularning oilaviy ahvalidir. Sababi, o'smirlarning shaxsiyatini shakllantirishda avvalombor ularning oilaviy muhiti asosiy rol o'ynaydi. Oilasi voyaga yetmaganlarning shaxsiyatini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Voyaga etmagan jinoyatchilarning 55 foizi otasi yoki onasi yo 'q yoki oiladan tashqarida (bolalar uyi, internat uyi va boshqalar) tarbiyalangan. Ayrim mualliflarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, voyaga etmagan jinoyatchilarning 65 foizi oilaviy muhit sog'lom emas va aksariyat hollarda bunday oilalarning oilaviy daromadlari ancha past bo'ladi[6]

Endilikda o'smirlar shaxsining jinoiy-huquqiy xususiyatlariga e'tibor qaradigan bo'lsak, statistik ma'lumotlarga ko'ra, voyaga yetmaganlarning 20 foizi huquqbuzarlik sodir etgan vaqtda oldin sodir etgan jinoyatlari uchun sudlangan yoki sudlanganlik holati olib tashlanmagan holatda bo'lgadi. Voyaga yetmagan jinoyatchilarning 17 foizi huquqni muhofaza qiluvchi organlarda ro'yhatda turgan, 10 foizi esa oldin jinoiy javobgarlikka tortilmagan, ammo, boshqa turdagi tarbiyaviy harakterdagi jazolarga tortilgan bo'ladi.

O'smirlar shaxsining jinoiy-huquqiy xususiyatlarini tahlil qilishni davom ettiradigan bo'lsak, ularning o'ziga xos yana bir jihati shuki, ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning 78 foizi xususiy mulkka qarshi qaratilgan bo'ladi. Ammo o'smirlar tomonidan ushbu jinoyatlarning amalga oshirishga yagona sabab sifatida moddiy foyda deb tushunish kerak emas. Sababi, Rossiyalik huquqshunos olim Yu.M.Antonyanning ta'kidlashicha, ko'pincha o'smirlar mazkur toifagi jinoyatlarni o'zlarining kuchini ko'rsatib qo'yish, tengdoshlari orasida hurmat va ishonch qozonish uchun amalga oshirishadi[7].

Shuningdek, o'smirlar shaxsining jinoiy-huquqiy xususiyatlaridan yana biri, ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlar aksariyat hollarda haddan tashqari shafqatsizlik bilan ajralib turadi. Buning o'ziga xos sabablari mavjud. Xususan, voyaga yetmaganlar jinoiy qilmishlarini shafqatsizlik bilan amalga oshirish orqali o'zlarining tengdoshlari orasida o'rnini kuchaytirish, aqliy kamchiliklarini shafqatsiz fel-atvori orqali qoplashga harakat qilishadi.

Voyaga yetmaganlar kriminalistik shaxsining navbatdagi belgisi bu - ularning axloqiy va psixologik xususiyatlaridir. Tadqiqotlarga ko'ra, 14 yoshdan 18 yoshdagacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning fe'l atvorida uyat-andisha, o'zgalar tashvishini anglamaslik, o'zini tuta bilmaslik, qo'pollik, yolg'onchilik va o'z aybini tan olmaslik kabi xislatlar kuzatilgan. Shuningdek, bu yosh oralig'ida voyaga yetmaganlar extirosga beriluvchan, odamovilik, o'zgalar dardiga xamadard bo'la olmaslik, tajovuzkorlik, o'jarlik kabi xislatlar ko'proq kuzatiladi. Shuningdek, aksariyat hollarda ularda huquqiy ong past bo'ladi, ular o'qish, san'at va siyosatga qiziqmasdan, aksincha ko'ngilochar o'yinlarga, ichkilikka qiziqishadi va bu kabi extiyojlarini qondirish uchun g'ayriqonuniy va jinoiy yo'llar bilan mablag' topishga harakat qilishadi.

Voyaga yetmaganlarning kriminalistik harakterining so'ngi belgisi bu- ularning fiziologik xususiyatlaridir. Xususan, huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning aksariyati spirtlik ichimliklarga va giyoxvandlik vositalariga ruju qo'ygan bo'lishadi. Bu esa, o'z navbatida ularning shaxsiyatini tanazzulga uchrashiga va turli o'ylanmagan xavfli qilmishlarni sodir etishiga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmaganlarning 15 foiz o'z qilmishlarini spirtli ichimliklar yoki giyoxvandlik vositasi ta'sirida sodir etishgan[8].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, voyaga yetmaganlarning kriminalistik harakterida quyidagi xususiyatlarni ko'rish mumkin ekan:

-Voyaga yetmaganlar tomonidan huquqbuzardiklar aksariyat hollarda ular 14-15 yoshlarida sodir etiladi;

-Voyaga yetmaganlar tomonidan huquqbuzarliklar ko'p hollarda shavfqatsizlik sodir etiladi;

-Voyaga yetmagan huqbuzarlarning xarakterida o'qish, shaxsiy rivojlanish va mehnat qiziqish bo'lmay, aksincha, ko'ngilhushlikka, spirtli ichimliklar va giyoxvandlik vositlariga qiziqish kuchli bo'ladi;

-Voyaga yetmaganlar huquqbuzarlarning aksariyat hollarda sog'lom oilaviy muhit bo'lmaydi va moddiy jihatdan qiyin ahvolda bo'ladi.

REFERENCES:

1. Грудинин Н.С. Личность несовершеннолетнего российского преступника и механизмы ее формирования // Научный Вестник. 2016. № 2. С. 20-27.
2. Алексеев А.И. Криминология: Курс лекций; 4-е изд., испр. и доп. М.: Щит-М,
3. Криминология: Дарслик / З.С.Зарипов, Ю.С.Пуллатов, Г.А.Аванесов ва бош;.; проф З.С.Зарипов тахрири остида. - .Т.: Узбекистан Республикаси ИИВ Академияси, 2006. - 474 б
4. Голубничая Л.С. Криминологическая характеристика личности несовершеннолетнего преступника // Амурский научный вестник. 2015. № 1. С.
5. Антонян Ю.М. Личность несовершеннолетнего преступника // Вестник ВИПК МВД России.2013. № 2

JISMONIY SIFATLARNI TARBIYALASHDA HARAKATLI O'YINLARNI QO'LLASH USLUBIYATI

Murodova Zilola Mirali qizi

*sport yunalishi: Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani
142- sonli IDUMning jismoniy tarbiya o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarining jismoniy sifatlarini tarbiyalashda harakatli o'yinlarni qo'llash uslubiyati haqida bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *harakatli o'yinlar, jismoniy tarbiya darsi, jismoniy sifatlar*

O'quvchi bolalar sog'ligini mustahkamlash va yosh sportchilarni tarbiyalashda harakatli o'yinlarning o'rnini beqiyosdir. Buning isboti shundan iboratki, dars yoki trenirovka mashg'ulotlari davomida qo'llaniladigan standart va me'yoriy (chegaralangan) jismoniy mashqlar (yurish, yugurish, osilib chiqish, tortilish, oyoq va qo'llarni bukish-yozish, egilish va h.) aksariyat hollarda bolalar qiziqishini so'ndiradi, kayfiyatini tushiradi. Ko'pincha bunday mashg'ulotlar unumli o'tmaydi. Ko'pchilik mutaxassis olimlarning fikriga ko'ra, aynan harakatli o'yinlar sog'liqni kuchaytirish, jismoniy sifatlarini rivojlantirishda o'ta samarali vosita deb tan olingan (Bril, 1980; A.I.Lisitsina, T.U.Usmonxo'jayev, 1992; M.N.Jukov, 2002; G.I.Berger 2003; I.M.Korotkov, L.V.Bileyeva 1982,2005,; M.A.Qurbonova, 2006, 2009).

Lekin, ushbu mutaxassislar sakrovchanlik sifatleri va umuman barcha jismoniy sifatlar hamda harakat ko'nikmalarini rivojlantirishda qo'llaniladigan harakatli o'yinlardan foydalanishdan avval shu o'yinlarni tashkil qilish, tartib-qoidalari, shart-sharoitlarir, pedagogik talablar haqida muayyan ma'lumotlarga ega bo'lishi zarurligini ta'kidlaydilar.

Azaldan ma'lumki, pedagog – trener va o'qituvchi – harakatli o'yinlar tashkilotchisi va boshqaruvchisi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazishda quyidagilarni nazarda tutish lozim:

O'quvchilarning jismoniy barkamolligiga, salomatligining yaxshilanishiga, chiniqishiga, tana a'zolari va umumiy ish qobiliyatining o'sishiga yordam berish;

O'quvchilarda har xil sharoitlarda erkin harakat qila olish imkonini beradigan bilimlar va kerakli harakat malakalarini hosil qilish;

O'quvchilarda hayotiy faoliyatda yordam beradigan aqliy va irodaviy sifatlarini tarkib toptirish;

O'quvchilarni turli o'yinlar va jismoniy mashqlarga qiziqtirish, rejimga rioya qilishga odatlantirish;

O'quvchilarda harakatli o'yinlarni mustaqil holda tashkil etish va o'tkazish uchun zarur bilim va malakalar hosil qilish.

Harakatli o'yinlarni o'tkazishda o'qituvchining tashkilotchi va tarbiyachi sifatidagi vazifasi juda mas'uliyatlidir (I.M.Korotkov, 2009; L.V.Bileyeva 2005, 2009; T.U.Usmonxo'jayev, 1992).

Darsda, shuningdek, turli o'yinlarni o'tkazish jarayonida o'rganiladigan materiallarning metodik jihatdan izchilligiga alohida e'tibor berish muhim ahamiyatga ega. Chunki izchillik birinchidan, darsning ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarini to'g'ri hal qilish, ikkinchidan, dars materiallarini to'liq o'tishga erishish, uchinchidan, butun dars davomida har bir mashqni muayyan me'yorida amalga oshirish imkonini beradi.

Darsning boshida yoki o'rtasida zo'r e'tibor berishni va o'zaro muvofiq murakkab harakatlarni qilishni taqazo etadigan o'yin hamda mashqlar o'tkazilsa, dars oxirida o'quvchilarning tana a'zolarini birmuncha tinch holatga keltiradigan o'yin va mashqlarni o'tkazish kerak. Masalan, dars boshida bolalarning diqqatini to'plash uchun "O'ylab top", "Hamma o'z joyiga", "Man qilingan harakat" singari o'yinlar o'tkazilsa, darsning asosiy qismida "Quvnoq bolalar", "Qoch bolam, kalxat keldi" kabi serharakat o'yinlarni o'tkazish tavsiya etiladi.

O'rta yoshdagi o'quvchilar bilan darsning asosiy qismida "cho'pon, qo'y va bo'ri", "Oq tosh", "Oq ayiqlar" va boshqa o'yinlarni o'tkazish, darsning yakunlovchi qismida esa kam harakatli "Daqqa", "To'g'ri burilish" o'yinlarni o'tkazish maqsadga muvofiqdir (T.Usmonxo'jayev, F.Xo'jayev).

Agar butun dars faqat o'yinlardan iborat bo'lsa, serharakat o'yinlarni kam harakatli o'yinlar bilan bir xil yo'sindagi o'yinlarni ikkinchi xil yo'sindagi o'yinlar bilan navbatlashtirib o'tish kerak.

Agar o'qituvchi bir sport turi texnikasining ayrim qismini o'yin orqali bolalarga o'rgatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ysa, avval o'yinning mazmuni va yo'nalishini puxta o'ylab olishi zarur.

Masalan, "To'pni oldirma" yoki "To'p ilish" o'yinlari yordamida bolalarga to'p uzatish va ilib olish harakatlarini o'rgatish belgilangan bo'lsa, bu ishni faqat mazkur o'yinlar orqali amalga oshirib bo'lmaydi. Chunki o'ynayotganlarning asosiy e'tibori to'pni tez uzatish va ilib olish bilan band bo'lib, o'yin texnikasi elementlarini bajarish e'tibordan chetda qoladi. Agar bu ish tegishli metodik ko'rsatmalarga amal qilib va ba'zi bir o'zgarishlar kiritib o'tkaziladigan o'yinlar yordamida bajarilsa, maqsadga erishish mumkin (M.A.Qurbonova, 2006).

O'quvchilarni ortiq charchatib qo'ymaslik hayajonli va ermak o'yinlarni ko'p o'tkazavermay, ularni bolalarning jismoniy tayyorgarlik darajasi va organizmi imkoniyatini hisobga olgan holda boshqa xildagi o'yin va mashqlar bilan qo'shib olib borish kerak.

Hushyor o'qituvchi ayrim bolalarning charchash belgilarini (rang o'chishini, harakatlari sustligini va o'yinni davom ettirish istagi yo'qligini) darhol sezib oladi.

Jismoniy tarbiya darsining muhim xususiyatlaridan biri vaqtdan unumli foydalanishdir. Bu tadbir darsni samarali o'tish imkonini beradi. O'qituvchi o'quvchilarni darsda faol